Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 3 (2024) · “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirish tendensiyalari” mavzusidagi respublika il...

BIZNES LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHDA TIJORAT BANKLARI KREDITLARIDAN FOYDALANISH MASALALARI

Ortiqov Ulug‘bek Akrombek o‘g‘li

TDIU katta o‘qtuvchisi

Xalqaro amaliyotda biznes vakillarining biznes g’oyani moliyalashtirishda qiyinchiliklarga duch kelishi hamda yetarli kapital jalb qila olmasligi natijasida biznes faoliyatini samarali tashkil eta olmasligi holatlari tez-tez uchraydi. Mazkur masalani ijobiy hal qilish maqsadida so’nggi o’n yilliklarda biznes loyihalarini moliyalashtirishning yangi usullari va shakllari yuzaga keldi. Shunga qaramasdan kompaniyalar biznes loyihalari moliyalashtirishning an’anaviy usullaridan, jumladan, tijorat banklari kreditlaridan hanuzgacha keng miqyosda foydalanib kelmoqda va mazkur holatni xorijiy mamlakatlar tajribasida ham, milliy amaliyotda ham kuzatish mumkin. Biznes loyihalarini moliyalashtirishda tijorat banklari ishtirokini o’rganish orqali ta’kidlash lozimki, mazkur moliyalashtirish shaklidan ancha yillardan beri foydalanilayotganligiga qaramasdan turli darajada rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda biznes loyihalari moliyalashtirishda tijorat banklarining mablag’laridan foydalanish shartlari hamda imkoniyatlari turlicha shakllangan.

Tijorat banklari biznes loyihalarini moliyalashtirishda asosiy ishtirokchilardan hisoblanganligi sababli ko’plab xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan tijorat banklarining biznes loyihalarini moliyalashtirishdagi ahamiyati, roli, mazkur jarayonga ta’sir etuvchi omillar kabilar bo’yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. J. Kensinger va J. Martin o’z tadqiqotlarida biznes loyihalarini moliyalashtirishda tijorat banklarining ishtirokini yoritgan. “Xalqaro amaliyotda xorijiy tijorat banklari faol investorlar bo'lib kelgan va ular uchun loyihalarni moliyalashtirish mavjud an’anaviy amaliyotni kengaytirish hisoblanadi”

K. Ganbat va boshqalarning fikricha, “keyingi paytlarda jahon amaliyotidan kelib chiqqan holda tijorat banklarining kapitali ekologik faoliyatdagi loyihalarni moliyalashtirishning muhim manbai hisoblanadi. Loyihaviy moliyalashtirishning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning turli manbalari, vositalari va usullaridan, jumladan, bank kreditlari, aksiyalar emissiyasi, obligatsiyalar, lizing, o‘z mablag‘lari va hokazolardan keng foydalanish imkoniyatidir. Loyihaviy moliyalashtirish uchun qarz mablag’lari ikki asosiy manba: tijorat banklari va obligatsiyalar investorlari tomonidan taqdim etiladi”. Ta’kidlash lozimki, uzoq yillarda beri tijorat banklari loyihalarni moliyalashtirishning an’anaviy va ishonchli manbalaridan biri sifatida keng foydalanilmoqda.

“Biznes loyihalarini moliyalashtirishda mablag'lar, asosan, tijorat banklari va boshqa moliya institutlari tomonidan beriladi hamda mazkur mablag’lar, odatda, loyihaning asosiy aktivlari hisobiga sekyuritizatsiya qilinadi. Kapital jalb qiluvchilar quyidagilarga harakat qilishadi: xavfsiz daromad chegarasi bilan qarz to'lashni moliyalashtirishi mumkin bo'lgan taxminiy pul oqimlari, majburiyatni bajarish uchun investorlardan yetarli miqdorda aksiya ulushi orqali kapital jalb qilish, xarajatlarning

Published: 17.05.2024


Cite this article: Ortiqov Ulug‘bek Akrombek o‘g‘li (2024). Biznes loyihalarini moliyalashtirishda tijorat banklari kreditlaridan foydalanish masalalari. Emro Science and Education, 1(3). https://journal.emro.uz/public/maqola/130

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

oshib ketishi kabi muayyan muammolar yuzaga kelganda investorlarga murojaat qilish va mablag'lardan foydalanish va loyihani boshqarishni ta'minlash uchun shartlarni belgilash. Qisqa muddatli moliyalashtirish manbalariga tayanadigan tijorat banklari uzoq muddatga qat'iy foiz stavkalari bo'yicha kredit berishni istamasalarda, ular suzib yuruvchi va qat'iy belgilangan foiz stavkalari kombinatsiyasi orqali moliyalashtirishni tashkil qilishlari mumkin. Mazkur holat loyihaning foiz riskini kamaytiradi”. Biznes loyihalarini moliyalshtirishdagi yuqorida ta’kidlab o’tilgan o’ziga xosliklar mazkur jarayonning murakkabligini aks ettirish bilan bir qatorda yirik tijorat banklari uchun qiziqarli investitsion jarayon bo’lib qolayotganligini ko’rsatmoqda.

E. Yescombe biznes loyihalarini moliyalashtiruvchilar orasida mahalliy tijorat banklari ishtirok etishining ahamiyati to’xtalib o’tgan. “Odatda, ma’lum bir davlatdagi loyiha o‘z mablag‘larini mazkur mamlakatda faoliyat yurituvchi banklardan jalb qilgani ma’qul. Birinchidan, ular mahalliy sharoitni yaxshi tushunadi. Ikkinchidan, moliyalashtirish mamlakat valyutasida taqdim etilishi natijasida valyuta risklarining oldi olinadi. Shu sababli rivojlangan mamlakatlarda loyihalar, odatda, mahalliy banklar yoki tegishli mamlakatda filiallari yoki sho'ba korxonalari bo'lgan xorijiy banklar tomonidan moliyalashtiriladi. Bunday moliyalashtirish loyihalarni moliyalashtirish bozorining eng katta qismini tashkil qiladi” . Demak, mahalliy tijorat banklarining biznes loyihasini moliyalashtirishda ishtirok etishi xorijiy tijorat banklari va boshqa moliyalashtiruvchi moliyaviy institutlar tomonidan e’tiborga olinadi.

Biznes loyihasini moliyalashtirishda tijorat banklari ishtirokini tahlil qiladigan bo’lsak, mamlakatimizda tijorat banklari tomonidan loyihalarni moliyalashtirish bo’yicha kreditlar ajratilayotganligi kuzatish mumkin. Tijorat banklarining biznes loyihasini moliyalashtirishdagi ishtirokini tahlil qilishda ko’rish mumkinki, biznes loyihalarini ko’rib chiqish uchun bir qator hujjatlar talab etiladi (1-rasm).



1-rasm. O’zsanoatqurilishbank ATBda biznes loyihalarini ko’rib

chiqish uchun zarur bo’lgan hujjatlar

1-rasm ma’lumotlaridan ko’rish mumkinki, O’zsanoatqurilishbank ATBda biznes loyihalarini ko’rib chiqish uchun zarur bo’lgan hujjatlarga kredit olish uchun ariza, ustav va ta’sis shartnomasi nusxasi, pul oqimi tahlili ko’rsatilgan biznes-reja, korxonaning so’nggi uch yil uchun choraklar bo’yicha soliq inspeksiyasi tomonidan tasdiqlangan buxgalterlik hisobotlari, ta’minot bo’yicha shartnoma, ishlab chiqarishga mo’ljallangan ko’chmas mulkni tasdiqlovchi hujjat yoki ijara shartnomasi, xarid qilinayotgan jihozlarning texnik pasportlari va raqobat varag’i kabi hujjatlar kiradi.

Xulosa sifatida aytish lozimki, biznes loyihalarini moliyalashtirishda tijorat banklari kreditlaridan foydalanish mexanizmlari samaradorligini oshirish, uning huquiy va tashkiliy jihatlarini qulaylashtirish hamda biznes loyihalarining faoliyat xususiyatidan kelib chiqqan holda moslashuvchan kredit siyosatini shakllantirish zarur. Bu orqali mazkur amaliyotni mamlakatimizda tijorat banklarni yanada rivojlantirish hamda tijorat banklari aktivlarini ko’paytirish imkoniyatlarini yaratish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. John W. Kensinger, John D. Martin. Project Finance: Raising Money the Old-Fashioned Way. // Journal of Applied Corporate Finance 1(3), April 2005.

2. Khaliun Ganbat, Inessa Popova, Ivan Potravnyy. Impact Investment of Project Financing: Opportunity for Banks to Participate in Supporting Green Economy. // Baltic Journal of Real Estate Economics and Construction Management, № 4, November 2016. - p. 72.

3. Project finance in developing countries: IFC’s lessons of experience // International Finance Corporation, Washington, D.C., 1999. – p. 9.

4. E. R. Yescombe. Principles Project Finance. // An Imprint of Elsevier, 525 B Street, Suite 1900, San Diego, California, USA, 2002. - p. 24.

5. https://sqb.uz/uz/business/investitsion-loyihalarni-moliyalashtirish/ - O’zsanoatqurilishbank ATBning rasmiy sayti ma’lumotlari.